



BOSHLANG'ICH SINFLARDA RUS TILINI MULTIMEDIA ORQALI O'QITISH

Rasuljanova Shaxzoda Ilxomjanovna,
*Ishoqxon Ibrat nomidagi Namangan davlat
chet tillari instituti, Jahon tillari fakulteti,
filologiya va tillarni o'qitish, (Rus tili)
yo'nalishi, RUA-BR-22 guruh talabasi
Gmail:shahzodarasuljanova@gmail.com*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy ilm-fan talablaridan biri bo'lgan til o'rganish va o'rgatishning zamonaviy va interfaol usullari boshlang'ich sinflar misolida ko'rib chiqilgan. Qolaversa, pedagoglar foydalanishi uchun manfaatli bo'ladiqan bir necha innovatsion metodlar ham keltirib o'tilgan.

Kalit so'zlar: boshlang'ich sinflar interfaol, innovatsiya, keys-study, sezgi a'zolari orqali o'rganish, aralash texnika, leksema, sema, grammatika, lug'at,

Dunyo har kuni har soniya rivojlanib bormoqda . Zamon talabi hamda jadal sur'atlarda o'sib borayotgan globallashuv har bir yoshni til o'rganishga bo'lgan ehtiyojini yanada oshirmoqda. Tabiiyki, bu holat bugungi kunda eng ommalashgan til -rus tilining mavqeyi ortishiga sabab bo'ldi. Shu jumladan bizning yurtimizda ham rus tilini o'rganishga bolgan talab va e'tibor oshdi. Bu jarayon davomida axborot texnologiyalaridan foydalanish ham muhim ahamiyat kasb etdi. Maktablardagi chet tili xonalari qayta ta'mirlandi va kerakli barcha jihozlar (interaktiv doska, zamonaviy o'quv qurollar, o'yinlar uchun maxsus jihozlar, televizor, proyektor va boshqalar) bilan ta'minlandi. Bundan tashqari, milliy o'quv dasturida ham AKT dan foydalangan holda yangi o'quv darsliklar yaratilgan bo'lib, endilikda o'quv jarayonlari zamonaviy texnologiyalar bilan birgalikda olib boriladi. Bu esa rus tilini o'rgatishda va o'rganishda bir qancha qulayliklar yaratadi. Ta'limning maqsadi jamiyat ehtiyojiga mos ravishda shakllanadi. Shunday ekan, ta'lim-tarbiya maqsadi mos va mutanosib bo'lishi kerak. Ilmiy adabiyotlarda ta'limning maqsadi imkoniyatlaridan to'g'ri, aniq, o'rinni foydalanish ko'nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy-ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, milliy g'oyani singdirish, sharqona tarbiyani shakllantirish, shaxsni ma'naviy boyitishdan iboratligi ta'kidlangan. Ta'limiy maqsad asosida o'quvchilarda mustaqil fikrlash, og'zaki va yozma savodxonlikni oshirish, mantiqiy tafakkurni rivojlantirish orqali ularning muloqot madaniyati takomillashtiriladi. Tarbiyaviy maqsad asosida esa ma'naviy, g'oyaviy, nafosat tarbiyasi beriladi. Til o'rganish jarayonida xalqning madaniy-axloqiy qadriyatlariga yaqinlashtirish imkonи paydo bo'ladi. So'nggi paytlarda rus tilini o'rganadigan har qanday yoshdagi odamlar soni juda ko'paymoqda. Buning sababi, hayot jarayonida rus tilini bilmasdan yashash



qiyinlashib bormoqda. Ammo til o'rganish ham yosh davrlariga bog'liq. Shuning uchun yosh bolalar bilan alohida metodlarni sinab ko'rish, kattalarga esa boshqacha usullar orqali til o'rgatish zarur. Yana shunga e'tibor qaratish kerakki, 6-7 yoshdagi bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganayotgan boshlang'ich sinf o'quvchilariga tilni o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani charchatishi va til o'rganishga bo'lgan qiziqishini susaytirib qo'yishi mumkin. Chunki boshlang'ich sinfdagi o'quvchilarga chet tilini o'rgatish qiyin shu bilan birga mas'uliyatli vazifalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ham boshlang'ich sinflarga rus tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi innovatsion metodlardan foydalanish mumkin:

Keys-study orqali o'qitish, ya'ni bolalarga faqat nazariy bilimlar berish bilan cheklanmay, ularni o'sha vaziyatga olib kirish. Masalan, ovqat atrofida o'tirganda bolalar elementar buyumlar (qoshiq, sanchqi, sochiq kabi) nomini ham rus tilida aytishga harakat qilishlari kerak, bu orqali boladagi passiv lug'at faol nutqqa chiqadi.

Ko'rish orqali eslab qolish. Ya'ni yosh bolalar ko'proq o'qigan, eshitgan ma'lumotlarini emas, balki ko'rgan narsalarini eslab qolishadi. Shuning uchun dars mobaynida bolaga aynan o'rgatilayotgan predmetni ko'riah imkonini berish kerak. Masalan, ruchka so'zini yodlatish uchun o'quvchi avval ruchkani ko'rishi va u haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak, chunki agar miyamizda so'z haqidagi tushuncha mavjud bo'lsa o'sha leksemaning semasi bizning xotira maydonimizda ko'proq yashab qoladi.

Qo'shiq va she'rlar orqali tushunish yoki eslab qolish qiyin bo'lgan so'zlarni musiqaga solib kuylash. Bunda yangi so'zlarni eslab qolish bilan birga, bolaning og'zaki nutqi ham rivojlanadi. To raqobatdosh grammatika va so'z boyligini o'zlashtirishga yordam beradigan o'yinlarning aksariyatini o'z ichiga oladi. Bunda bolalar o'qituvchi bergen turli xil topshiriqlarni bajaradi. Natijada o'quvchilar orasida raqobat vujudga kelib, til o'rganishga bo'lgan qiziqishi yanada oshadi.

Aralash texnika bu yerda biz ixtiyoriy ravishda turli xil texnikalarni birlashtira olamiz. Masalan, bunda bolalar o'yin o'ynashi, qo'shiqlar aytishi, rasm chizishi, turli xil harakatlar orqali yangi so'zlarni ko'rsatib berishi mumkin. Texnikaning afzalligi xilma-xillikda. Bunda o'quvchi faqat bitta narsa orqali cheklanib qolmaydi.

Xulosa qilib aytganda, boshlang'ich sinf o'quvchilariga til o'rgatishni majburiyat sifatida emas, aksincha, qiziqarli o'yinlar va innovatsion metodlardan foydalangan holda olib borishi, ularning kelajakda oladigan bilimlari uchun poydevor bo'lib xizmat qilishi mumkin. Shunday ekan, ta'lim tizimi ham o'z oldiga erkin fikrlovchi,



barkamol, yetuk shahsni tarbiyalashni vazifa qilib qo'yar ekan, kelgusida biz bo'lajak o'qituvchila rinnovatsion texnologiyalardan samarali foydalanish yo'llarini yanada mukammal roqishlab chiqish bilan o'z hissamizni qo'shishimiz mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. M. X. Toxtaxodjayev "Pedagogika" Toshkent - 2010. 220, 221 - betlar.
2. I. Karimov "Barkamol avlod orzusi" Toshkent- 2000. 133, 134 – betlar
3. O. Z. Suyunov "Pedagogika Psixologiya" fanidan o'quv - uslubiy majmua. Samarqand- 2013.
4. Sh. Qosimov Pedagogikada ta'lrim modellari Chop etilgan Respublika ilmiy amaliy konferensiya ŸMKXTTKMO va UKTI "Barkaror rivojlanish talablaridan kelib chiққан xolda kadrlar malakasini oshrish va ularni qayta tayyorlash tizimini modernizatsiyalash" 2016 yil 13 aprel. -B179-182.
5. Sh. Kosimov, Pulatov G. E. Teacher Innovative Activity In Teaching Special Subjects International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology NOVATEURPUBLICA TION'S VOLUME 7, ISSUE 5, MAY 2020 EDITION ISSN: 2394-3696. www.ijiert. -P. 282-284.
6. Madrahimova Zebo Frunzevna, & Rahimova Nozima Odilbekovna. (2024). TIL O'RGANISHDA O'YINLASHTIRISH VA BOSHQA INNOVATSION YONDASHUVLAR. MODERN PROBLEMS IN EDUCATION AND THEIR SCIENTIFIC SOLUTIONS, 9(9), 11–13.
7. Матниязова Феруза Фазилбековна, & Мадрахимова Зебо Фрунзевна. (2024). ТЕХНОЛОГИЯ ПРИМЕНЕНИЯ КРИТИЧЕСКОГО МЫШЛЕНИЯ НА УРОКАХ РУССКОГО ЯЗЫКА И ЛИТЕРАТУРЫ. THEORY OF SCIENTIFIC RESEARCHES OF WHOLE WORLD, 4(1), 116–118.
8. Мадрахимова , З. Ф. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ СЛОВ ОТ ТЮРКСКИХ ОСНОВ С ПОМОЩЬЮ РУССКИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 142–145
9. Ahmadjonovna, K. M. . (2023). THE ROLE OF SYNTACTIC DEVICES IN INCREASING THE EXPRESSIVENESS OF POETIC SPEECH. Miasto Przyszłości, 38, 133–137
10. Xusanova, M. R. A. (2016). ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ИНДИВИДУАЛЬНОСТИЛИСТИЧЕСКИХ НЕОЛОГИЗМОВ-ПРИЗНАК СТИЛИСТИЧЕСКОГО СВОЕОБРАЗИЯ. Актуальные научные исследования в современном мире, (5-1),125-130
11. Madraximova Zebo. (2023). DEATH GLORY OF THE WRITER. JOURNAL OF SCIENCE, RESEARCH AND TEACHING, 2(5), 104–106.
12. Xalikovna, R. D. (2023). Teaching Vocabulary Through Word Games. Central Asian Journal of Social Sciences and History, 4(6), 136-144.



13. Ruzikulova, D. X. (2022). THE PERSPECTIVES OF LEARNING FOREIGN LANGUAGES IN THE MODERN SOCIETY. International Journal of World Languages, 2(2).
14. Ikromjonovna, J. S. (2024, March). Methods of Teaching Mathematics in Primary Classes. In International Global Conference (Vol. 1, No. 4, pp. 19-25).
15. Мадрахимова , З. Ф. (2023). ОБРАЗОВАНИЕ СЛОВ ОТ ТЮРКСКИХ ОСНОВ С ПОМОЩЬЮ РУССКИХ СЛОВООБРАЗОВАТЕЛЬНЫХ ЭЛЕМЕНТОВ. Innovative Development in Educational Activities, 2(9), 142–145.

